

MAKTABDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INTELLEKTUAL FAOLLIKNING O'RNI VA ROLI

N.M.Po'latova

M.E.Xaydarov

Nizomiy nomidagi TDPU

Annotatsiya: Maqolada maktab o'quvchilarini kompetentligini oshirishda «Faollik me'yor» va «faoliyat me'yor» orasidagi tafovut haqida fikr yuritildi.

Tayanch iboralar: Kommunikativ, «Faollik me'yor» va «faoliyat me'yor», Intellektual faollik, Ijtimoiy faollik.

Insonparvar demokratik jamiyati sharoitida o'quvchi yigit va kizlarimiz turmush tarzida intellektual faollikning shakllanish jarayonini tularok tasavvur etmok uchun kuyidagi muammolar-yoshlar onggi va foaliyatida xukmron bulib turgan intellektual passivlikni kanday bartaraf etish darkor?, intellektual faollik deganda nimani tushunmok kerak? Kanday komponentlar intellektual faollikni yagona tuzilmaga birlashtirib turadi? Intellektual faollik inson ma'naviyatida kanday urinni egallaydi? Intellektual faollikni shakllanganlik dara jasini aniklovchi mezonlar, kursatkichlar bormi? kabilar yechimi yuzasidan anik ma'lumotlarga ega bulishimiz lozim.

Intellektual faollik xakida fikr-muloxazalar yuritishdan oldin «faollik» tushunchasini moxiyatini tushunib olmogimiz zarur. Ilmiy - falsafiy adabiyotda «faollik» tushunchasiga turli cha ta'rif berilgan. Ushbu ta'riflarga sinchkovlik bilan nazar solsak «faollik» (aktivlik) aksa riyat xollarda inson faolliyatini bilan boglanadi. Inson amaliy faoliyatining muxim xarakter ristikasi ushbu fazilatni talkin etishda tadjikotchilar, tugri metodologik pozitsiyada turganliklariga karamasdan, ularning fikr-muloxazalarida ba'zi anglashilmovchiliklar, chalkash liklar xam uchraydi. Chunonchi, ayrim tadjikotchilar «faollik» bilan faoliyatni bir tartibdagi, bir xil mazmunga ega bulgan tushunchalar, deb talkin kiladilar. Faoliyat faollikning yukori turi deb ishontirmokchi buladilar. Bizning fikrimizcha, faollik insonning jismoniy va ma'naviy energiyasi, ya'ni ma'naviy jismoniy kuch-kuvvati sifatida namoyon buladi. Ya'ni, faoliyat faollik ning natijasi, uning moddiy va ma'naviy mujassamligi, uning yukori boskichga kutarilganligi ning ifodasidir. Xuddi shuning uchun xam nemis faylasufi Immanuel Kant «... faollik faoliyat dan avval namoyon buladi...»¹, deb yozgan edi.

Umuman, faoliyatni sub'yekt faolligining ulchovi, me'yor, uning rivojlanganligi daraja sini ifodasi deb talkin etgan tadjikotchilarning fikriga kushilsa buladi. Lekin, bunday ta'rif, bizning fikrimizcha, ijtimoiy faollikning mazmunini tula ochib bera olmaydi. Chunki, faollik sub'yekt faoliyatida kisman namoyon buladi, xolos. Insonda faollikning xali sodir bulmagan soxa rezervlari xamisha yopiladi. Bunday imkoniyatlar favkulotda biron vaziyat yuz berganda ruyobga chikishi mumkin. Shuning uchun xam faollikning sub'yekt faoliyatining me'yor, uning ichki imkoniyatlaridan foydalana bilish darajasi, deb tushunsak buladi. «Faollik me'yor» va «faoliyat me'yor» tushunchalari orasidagi tafovutni aniklash uchun esa ushbu tushuncha-larni «imkoniyat va vokelik» kategoriyalari bilan takkoshlash lozim buladi. Ularning birinchi sodir bu lishi mumkin bulgan xodisa yoki vokeani bildirsa, ikkinchisi ruyobga chikkan xodisa yoki vokeani anglatadi. «Faollik me'yor» bilan «faoliyat me'yor» orasidagi tafovut, bir tomondan,

faoliyat ning murakkabligini, ikkinchi tomondan esa, insonni uzida mavjud bulgan imkoniyatlarni namoyon kila bilish darajasini ifodalashda kurinadi. Faollik inson borligining muxim tavsiflari dan biri bulganligi uchun xam uning kutblari turli tomonlarga karatilgan bulib, bir kishi yoki kupchilik, oila yoki jamoa, sinf yoki jamiyat tabaka yoki millat manfaatiga xizmat kilishi mumkin, SHuning uchun faollik turli maksad va manfaatlar tomon yunaltirilgan intilishlar oriyentatsiya larning oddiy yigindisi emas, balki, doimiy xarakat va uzgarishda bulgan murakkab tizimdir. Faollik tufayli inson faoliyati ma'lum bir maksadga yunaltiriladi, ya'ni faollik nafakat in son faoliyatining mezoni, balki usha faoliyatning kanday manfaat tomon yunaltirilganligini xam uzida ifodalaydi. Shuningdek, uning ijtimoiy xarakterga ega ekanligidan xam dalolat Bera di xamda faollik insonda mavjud bulgan moddiy va ma'naviy imkoniyatlarni vokelikka aylani shida muxim vosita vazifasini xam bajaradi.

Yuqorida eslatib utkanimizdek, faollikning yunalishlari shaxsiy yoki jamiyat manfaat larini kondirishga karatilgan buladi. Lekin ijtimoiy faollik amalga oshayotganda, shaxs manfa atlari yukolib ketmaydi, akincha ijtimoiy manfaatlar bilan muvofiklashsada uzining asosiy xususiyatlarini saklab koladi. Faqat shaxs va jamiyat manfaatlarini uygunlashtirishga karatil gan ijtimoiy faollikkina biz orzu kilgan komil inson ma'naviy kiyofasini shakllantirishda muxim axamiyatga ega buladi.

Ijtimoiy faollik xam uziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu uziga xoslik inson amaliy fao liyatining turli soxalarida namoyon buladi. Inson amaliy faoliyatining shakllari turlicha bul ganligi bois, ijtimoiy faollikning shakllari xam turli-tuman (chunonchi, siyosiy, mexnat, intel lektual va xakoza) buladi.

Intellektual faollik ijtimoiy faollikning muxim shakllaridan ekan, u inson amaliy faoliyati darajasi ifodasi bulib, u amaliy faoliyat vositasida insonning olamdagi vokea-xodi salar moxiyatini bilishga bulgan extiyoji va intilishini kondiradi, borlikning turli shakllari orasidagi uzaro alokadorlik konuniyatlarini bilib oladi, uning manzarasi xakida turli xil ma'lumotlarga ega buladi. Xuddi shuning uchun xam intellektual faollik inson ma'naviy kiyofa sini xarakterlovchi, uni fikrlash madaniyati darajasi, sur'atini eng muxim kursatkichlaridan biri vazifasini xam bajaradi.

Intellektual faollikning shakllanish jarayoni turli boskichlar, turli xolatlarni uzida birlashtirib, turli darajalarda namoyon buladi. Intellektual faollikning pastki boskichi insonning kundalik amaliy faoliyatini takomillashtirishda, shuningdek ushbu faoliyat samara-dorligini oshirishda namoyon buladi. Inson kundalik faoliyatida yangi informatsiyalarga exti- yojini kondirish uchun yangi bilimlar, yangi informatsiyalar olishga intilish kuchaya boradi, ya'ni bunday paytda kishi uzining amaliy faoliyatini takomillashtirib, samaradorligini oshirishi uchun vakti-vakti bilan turli bilimlar tuplashga intiladi. Lekin, bu faoliyat xali yuzaki bulib, anik bir maksadga karatilmagan buladi.

Intellektual faollik o'zining o'rta boskichi kuyi boskichga karaganda, ancha tez rivojlana boshlaydi. Bu boskichda insonning yangi bilim va ma'lumotlar tuplashga karatilgan intilishlari, sa'y-xarakatlari barkarorlashadi va ma'lum tizimga kira boshlaydi. Intellektual faollikning xuddi shu boskichida insonning ob'yektiv olamni bilish borasidagi kobiliyat va malakalari tizimi shakllanadi. Jumladan, yangi bilim va kasblarni uzlashtirish, taxliliy fikr yuritish, analiz va sintez kilish, olingan bilimlarni amaliyotga tadbik eta bilish, muammolarni kun tartibiga kuyish, ularni bartaraf kilish, uz faoliyatini boshkalar faoliyati bilan takkoslash kabi xislat-lar kundalik turmush tarzida mustaxkam urnashib oladi.

Intellektual faollikning yukori boskichida biz sanab utgan xislatlar va fazilatlar inson kundalik amaliy faoliyatida tula-tukis namoyon bula boshlaydi. Ushbu boskichda

inson in-tellektual faolligida ijodkorlik, yangi bilim va yangi goyalar ishlab chikarish, boshkacha ayt-ganimizda ma'naviy ijodkorlik asosiy axamiyat kasb etadi. Atrofida sodir bulayotgan voqealar, xodisalarning moxiyatini chukurrok bilishga, taxlil kilishga bulgan extiyoj uzliksiz ortib bor-veradi. Xuddi shuning uchun xam intellektual faolikning yukori boskichining uziga xos xususiyati ilmiy yoki texnikaviy ijodkorlikdir. Ijodiy izlanishlar, evristik faoliyat kurinishlari shakllana boshlagan dastlabki boskichga nisbatan yangilik tomon intilish, ijodiy izlanishning gurkirab avj olishi, ijodkorlik eng yukori darpajaga kutarilishi bu yerda xal kiluvchi axamiyat kasb etadi.

Shunday kilib, intellektual faollik, ya'ni bilimga, ilmga chankoklik shakllanish jarayonida bir necha boskichlarni bosib utadi xamda turli darajalarda namoyon buladi. intellektual faollik inson amaliy faoliyati uchun zarur bilimlarni tuplash uchun amalga oshirilgan ijodiy izlanishlarni boshkarib turuvchi muxim mexanizm vazifasini bajaradi. U navbatida, intellektual faollik insonni ma'naviy-madaniy saviyasini xam ifodalaydi.

Intellektual faollikni ifodolovchi eng muxim kursatgichlardan biri umumiy professional ma'lumotni oshirishga bulgan intilishdir. Ma'lumki, asrimizning 50-60 yillarda kupchilik kishilar umumta'lim maktablari, urta va oliy ukuv yurtlarida olgan bilimlari bilan bir umr kifoyalanar edi. Keyingi yillarda esa, fan va texnika tarakkiyotida bulgan jiddiy Ugarishlar tufayli informatsiyalar okimi kuchaydi. Natijada, mavjud bilimlar xajmi xar 5-8 yilda ikki martaga kupayadigan buldi. Informatsiyalar okimining uzluksiz Ugarib turishi yigit va kizlarda olingan ma'lumotlar tezda eskirshiga, ya'ni yoshlardagi «kechagi» bilimlar bugunning talabiga javob bera olmay kolishiga sabab buldi.

Fan - texnika tarakkiyoti okibatida sodir bulgan «informatsiyalarning portlashi» ayrim yoshlarning bilim olishga bulgan intilishlarida xam jiddiy Ugarishlarga sababchi buldi. Xususan, ilmiy-texnikaviy iformatsiyalarning uzluksiz kupayishi bilan yoshlarning kundalik faoliyatlari uchun lozim bulgan bilimlarni izlash zaruriyati xam kundan-kunga ortib ketdi. Mavjud informatsiyalar bilan yangi informatsiyalarni uzlashtirish imkoniyatlari orasidagi ziddiyat keskinlashishi sababli, yoshlarning kupchiligida mavjud umumiy va professional bilimlar xajmidan konikmaslik xususiyati kurina boshladi. Xuddi shunday konikmaslik tuyg'usi bugungi yoshlarning ilg'or kismini kuprok uqishga, U bilimlarini oshirishga ichki turtki vazifasini bajarmokda.

Yoshlar umumiy professional ma'lumotlarini oshirishga bulgan intilishlarining shakllanishi jarayoni xakida gapirilar ekan, shuni aloxida ta'kidlash zarurki, ushbu jarayonni xarakatga keltirishda bilimga bulgan intilish bilan bir vaktida teskari alokalar tizimining xam ta'siri buladi, ya'ni inson kancha kup bilimga ega bulsa, u yanada kuprok bilim olishga inti laveradi va aksincha insonda bilim darajasi kancha past bulsa, unda bilim olishga bulgan inti lish shuncha kam buladi.

Bozor iktisodiyoti tomon borilayotgan xozirgi sharoitda yoshlarning muayyan kismida o'z ma'lumotlarini oshirishga bulgan intilish sezilarli darajada kamayib bormokda. Ayrim yoshlar ongida intellektual lokaydlik xukumronlik kilayotgan bir sharoitda mulkchilikning turli shakllari vujudga kelishi va uning ishchi yoshlar uzlaridagi mavjud umumiy va professional bilimlari xozirgi zamon talablari darajasida emasligini tankidiy baxolayotganliklari ayrim xollarda kuvonarlidir. Xuddi ana shu xolat yoshlarni mustakil ukib-urganishga ilxomlantiradi. Mustakil ukib urganish intellektual faollikning muxim kursakichlaridan bulib, ma'lum bir maksadga karatilgan faoliyat, ushbu jarayon xar bir kishining U tashabbusi bilan sodir buladi. Intellektual faoliyatning xarakterli tomoni shundaki, inson yangi bilim va ma'lumot olishga bulgan turli extiyoj va intilishlarini xuddi shu jarayon yordamida kondiradi. Chunonchi, bunday extiyoj va intilishlarni kondirish yullari xamda usullari., xajmi, mazmuni va shaklini, kanday

maksadga yunaltirilishi, mashgulot turi xamda muddati, kancha davom etishini xam mustakil intellektual faoliyat kusatayotgan kishining Ui aniklaydi.

Mustakil ukish va urganish jarayonining samaradorligi mavjud ob'yektiv shart-sharoit (bush vakt, yangi informatsion manba, real imkoniyatning mavjudligi va x.k.) va sub'yektiv omil-lar (yoshlarda malaka va kunikmani shakllanganligi) bilan xam boglik. Yangi bilimlarni uzlashtirish va uni kundalik amaliy faoliyatiga tadbik eta olish malakasi usha bilimlarni umumlashtirish kobiliyatiga bo rib takaladi.

Shunday kilib, intellektual faollik ijtimoiy faollikning muxim shakl-laridan biri, u inson amaliy faoliyat darajasining ifodasidir. Shu bilan birga u inson ma'naviy kiyofasini belgilovchi, fikrlash madaniyati darajasi sur'ati-ning eng muxim kursatkichlaridan biri vazifasini bajaradi.

Intellektual faollikning shakllanish jarayoni turli xolatlarni uzida mujassamlashtiradi va turli darajalarda namoyon buladi. Yoshlarda ukish, mustakil ukib urganish malakasini shakllantirish, uni doimiy rivojlanib turishini ta'minlash orkali umrlari davomida bilim olishga intilish extiyoj va malakani shakllantirish darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. M. Mirziyoev "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir". O'zbekiston-2018yil
2. 2.I.A.Karimov. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.- 64 b
3. 3.M.E.Xaydarov Pedgogikaaning izoxli lug'ati. Maxsus qo'llanma 2013-Toshkent "Fan va texnologiya".
4. 4.M.E.Xaydarov Pedagogika darslik. 2010 –Toshkent "Fan va texnologiya" 23b.